


2023



CONFERENCE OF INDIA

IN VOLUME #1  
ISSUE #2

# SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION



[www.woconferences.com](http://www.woconferences.com)

Google Scholar

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

zenodo

OPEN ACCESS

## ***EDITORIAL TEAM***

Editor: Ralf Schlauderer

Professor, Weihenstephan-Triesdorf University of Applied Sciences,  
Germany

Editor: Henry Matnews

Professor, Writtle University College, UK

Editor: Nataliya Strochenko

Professor, Sumy National Agrarian University, Ukraine

Editor: Dr. Victor Sohmen

Professor, Department of Management, Leadership Drexel University  
Philadelphia, Pennsylvania, USA

Editor: Dr. Syazliana Astrah Mohd Idris

PhD in Business Management, Universiti Teknologi MARA  
(UiTM), Shah Alam, Malaysia

Editor: Mohammad Tanzil Multazam

Professor, Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Indonesia

Editor: Malwina Hopej

Institute of International Studies, University of Wrocław, Wrocław,  
Lower Silesian Voivodeship, Poland

Editor: Hamid Ali Abed Al-Asadi

Professor in Computer and Communication Engineering, Basrah  
University, Iraq



Editor: Dr. Ahmed A. Elngar

Assistant Professor, Faculty of Computers & Artificial Intelligence,  
Computer Science Department, Beni-Suef University, Beni-Suef,  
Egypt

Editor: Rosa M. Batista Canino

Vice rectorado de Empresa, Emprendimiento y Empleo, ULPGC  
[rbatista@dede.ulpgc.es](mailto:rbatista@dede.ulpgc.es)

Editor: *Farhod Ahrorov*

Professor, Samarkand Veterinary Medicine Institute, Uzbekistan  
[admin@geniusjournals.org](mailto:admin@geniusjournals.org)

Editor: *Nooraini Youp*

Open University Malaysia, Director Taiping Learning Center,  
Doctor of Philosophy in Management

[nooraini\\_youp@oum.edu.my](mailto:nooraini_youp@oum.edu.my)

Editor: *Hadion Wijoyo*

Associate Professor, High School Informatics, and Computer  
Management Dharmapala Riau, Indonesia

[hadion.wijoyo@lecturer.stmikdharmapalariau.ac.id](mailto:hadian.wijoyo@lecturer.stmikdharmapalariau.ac.id)

Associate Professor, University of Molise

[fradivi@unimol.it](mailto:fradivi@unimol.it)

Editor: *Makhabbat Ramazanova*

Assistant Professor at Universidade Portucalense (UPT), PhD in  
Tourism

[admin@geniusjournals.org](mailto:admin@geniusjournals.org)



№	TABLE OF CONTENTS	
<b>1</b>	<b>СҮФИ ОЛЛОЁР ИЖОДИЙ МЕРОСИ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТАВСИФ</b> Қаршиев Ислом Эгамкулович	<b>7</b>
<b>2</b>	<b>SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK TUZILISHI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> <i>Omanova Adiba</i>	<b>10</b>
<b>3</b>	<b>BOSHLANG`ICH SINFLARDA ILK MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKILLANTIRISH VAZIFALARI</b> <i>Omonova Ra`no</i>	<b>14</b>
<b>4</b>	<b>ОТҚУЛОҚ (RUMEX CONFERTUS WILLD) ЎСИМЛИГИНИНГ ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ</b> З.Ш. Шодиева, С.Т. Чориева, Л.Б. Мукимова	<b>19</b>
<b>5</b>	<b>SHISHA ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI</b> <i>Отабоева Мадина, Эгамберганова Рисолат</i>	<b>24</b>
<b>6</b>	<b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARI</b> <i>Soliyev Farrux Farxod o'g'li.</i>	<b>35</b>
<b>7</b>	<b>DIQQAT YETISHMASLIGI VA GEPIRAKTIVLIK TUSHUNCHASI</b> <i>N.Xudoyberdiyeva, Sh.Abdurasulova, Sh.Boirqulova</i>	<b>41</b>
<b>8</b>	<b>ILK BOLALAIK DAVRI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</b> <i>B.O`roqova, K.Sharafitdinova, G.Norboyeva</i>	<b>47</b>
<b>9</b>	<b>MIOPiya VA KATARAKTA KASALLIGINING TURLARI, KLININK PATOLOGIK BELGILARI VA DAVOLASH USULLARI</b> Subhonova Mohigul G'ayrat qizi, Shukurova Barchinoy Abdulhofiz qizi	<b>51</b>
<b>10</b>	<b>BOLALarda ENG KO'P UCHRAYDIGAN TOP 10 TA YUQUMLI KASALLIKLAR VA ULARNI OLDINI OLISH</b> Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li, Isroilov Shaxzodbek Iqboljon o'g'li	<b>58</b>
<b>11</b>	<b>BOLALarda BO'Y O'SISHINI KECHNIKISH SABABLARI</b> Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li, Mahmudov Sanjarbek Bahodirjon o'g'li	<b>66</b>
<b>12</b>	<b>ОКАЗАНИЕ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ ПОРАЖЕННЫМ ПРИ ДЕЙСТВИИ РАДИАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ</b> Акбарова Муножатхон Юсупжановна, Мусаева Махсудаҳон Мухторжоновна	<b>70</b>
<b>13</b>	<b>ПРОФИЛАКТИКА КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ</b> Акбарова Муножатхон Юсупжановна, Косимова Мунаввара Зиябоевна	<b>74</b>
<b>14</b>	<b>АЛГОРИТМ ДЕЙСТВИЯ (ПЕРВАЯ ПОМОЩЬ) ПРИ ТЕРМИЧЕСКИХ ОЖОГАХ РАЗНОЙ СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ ПОСЛЕ УСТРАНЕНИЯ ПОРАЖАЮЩЕГО ФАКТОРА</b> Акбарова Муножатхон Юсупжановна, Хабибуллаева Фотимахон Улугбековна	<b>79</b>
<b>15</b>	<b>COMPOUND ROOT FORMULA</b> <i>Ruziyev Jamshid Xudoyberdiyevich</i>	<b>85</b>



<b>16</b>	<b>PROBLEMS WITH CHAINED FRACTIONS <i>Yuldoshev Mansur Najmiddin ugli</i></b>	<b>90</b>
<b>17</b>	<b>ЛСГ ГЛАГОЛОВ ЧУВСТВЕННОГО ВОСПРИЯТИЯ: РАЗНОВИДНОСТИ, ХАРАКТЕРИСТИКИ</b> Иброхимова Ноила Абдулаевна, Джусупов М.	<b>96</b>
<b>18</b>	<b>AMMPIAK ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI</b> Хамида Болтаева	<b>105</b>
<b>19</b>	<b>OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIDAN O'TADIGAN KASALLIKLAR VA ULARDAN ZAXARLANISH OMILLARINI TADQIQ QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISH.</b> Давлатова Юлдуз, Намозов Умиджон	<b>114</b>
<b>20</b>	<b>ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ АСАРЛАРИДАН ТАЛЬИМ -ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ</b> Исмоилова Ҳилола Ботир қизи	<b>119</b>
<b>21</b>	<b>КУРАШ ФАЛСАФАСИ</b> Абдулахатов А.Р., Эгамбердиева Р.Б.	<b>125</b>
<b>22</b>	<b>FUTBOL SPORTI TEHNİK-TAKTİK HARAKATLARINI O'RGATISHNING ILMIY-METODIK XUSUSIYATLARI</b> Anorboyev Bekmurod Dilmurod o'g'li, Maxammadjonov Kamoliddin Mashxurbek o'g'li	<b>129</b>
<b>23</b>	<b>СЎФИ ОЛЛОЁРНИНГ «САБОТУЛ ОЖИЗИН» КИТОБИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИГА ОИД ПСИХОЛГИК ҶАРАШЛАРИ</b> Жумаев А.Т., Қодирқулов Қ.А	<b>133</b>
<b>24</b>	<b>TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR JISMONIY TARBIYA, SPORT SOG`LOMLASHTIRISH MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH</b> Xudoyberganov Javlonbek Saotboy o'g'li, Abdulyaliev Sunnatilla Aslonbek o'g'li	<b>138</b>
<b>25</b>	<b>JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI FANI TARAQQIYOTINING USTUVOR YO`NALISHLARI</b> Yusupbayeva Amangul Saparbayevna, Pardaboyev Xasan Muzaffar o'g'li	<b>142</b>
<b>26</b>	<b>БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАКЛ ВА МЕТОДЛАРИ</b> Одилов Отабек Норбоевич, Нарзикулова Юлдуз Ислам қизи	<b>148</b>
<b>27</b>	<b>KURASHCHILARNING TEHNİK TAYORGARLIGINI MAXSUS HARAKATLI O`YINLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.</b> Raximberdiyev.J.N., Mamirov.J.O.	<b>153</b>
<b>28</b>	<b>ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЕ</b> Одилов Отабек Норбоевич , Абдуллаева Азиза Акбаржон кизи	<b>160</b>
<b>29</b>	<b>DIPLOMATIK TIL XUSUSIYATLARI EVROPA SOTSILOG VA LINGVISTLAR NIGOHIDA</b>	<b>166</b>



## JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI FANI TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Yusupbayeva Amangul Saparbayevna CHDPU Jismoniy madaniyat metodikasi kafedrasi o'qituvchisi.**

**Pardaboyev Xasan Muzaffar o'g'li Jismoniy madaniyat yo'nalishi 22/3 guruh talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqola jismoniy tarbiya nazariyasi fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari haqida, jismoniy tarbiyaning ahamiyatini targ'ib etadi. Ushbu maqo oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiyaning ahamiyatini ochib beradi

**KALT SO'ZLAR:** Jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi, sog'lomlashtiruvchi vazifalar, ta'limiyl vazifalar, tarbiyaviy vazifalar, jismoniy tarbiyaning asosiy vositalar.

O'zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajadagi istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta'lif tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning keljak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Mustaqillik, erkin fikr yuritish,adolat va teng huquqlik yurtdoshlarimizga yangi baxt-saodat keltirdi. Bunda jismoniy madaniyat va sport xarakati ham o'zining xaqli ravishdagi milliy maqomiga ega bo'ldi. Respublikaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy salohiyatida jismoniy tarbiya va sport ham o'z o'rni va mavqeiga egadir.

O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishga asos bo‘lvchi eng muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol namunasi O‘zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi qonuni (1992 yil 14 yanvar) barcha aholining sog‘ligini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillikka oladi. Bu Qonun 2000 yil 26 mayda va 2015 yil 4 sentyabr yangi taxrirda qayta qabul qilindi<sup>3</sup>.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport milliy modelining o‘ziga xos xususiyatlari - uning ma’naviy mazmunini mantig‘ini o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos mentaliteti, xalqning ilmga bo‘lgan xurmati, yuqori axloqi, xalqning jismoniy va ma’naviy rivojlanishga xamoxangligi, himmati, mexroqibati, mexmondo‘sligi, kirishimliligi va xamdo‘sligi tashkil etadi. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport modelining ma’naviy mazmuni, mamlakatning ma’naviy uyg‘onish konsepsiyasiga muvofiq keladi<sup>4</sup>.

Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxatlar, yosh avlod salomatligini muxofaza qilish va mustaxkamlash, ta’lim jarayonini barcha qismlarida ta’lim yunalishida sog‘lomlashtirish dasturlarni ta’minlab borilishiga katta etibor qaratilmoqda. Shu bois ta’lim muasassalarida asosan bolalik va o‘smirlik davridan jismoniy tarbiya va sportga poydevor qo‘yilgan. Sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etishda va yosh avlodni sog‘lom tarbiya qilishda jismoniy tarbiya va sport manaviy va mafkuraviy vosita sifatida qo‘llaniladi. Biz bugun demokratik ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar asosida, o‘zimizning turmush tarzimiz talablaridan kelib chiqqan holda barpo etishga xarakat qilmoqdamiz. Ana shu

3 Ushbu Qonun «Xalq so‘zi» gazetasining 2015 yil 5 sentyabrdagi 174 (6357)-sonida e’lon qilingan.

4 I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008 y.

harakatlar negizida sog‘lom inson turipti.Jismoniy tarbiya va sport orqali sog‘lom insonni shakllantirish butun bir jamiyatning vazifasi bo‘lmog‘i kerak. Xar bir inson, oila, ota -ona jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni odat darajasiga chiqarishi bilan birga, qadriyat sifatida e’zozlashi jamiyatning uzluksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishiga olib keladi. "Muxtasar aytganda, sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo‘lib kelmoqda va keljakda ham shunday bo‘lib qolishi mukarrar. Chunki - sport sog‘lom avlod, sog‘lom keljak degani. Binobarin, faqat sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi".Yosh avlod o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, jismoniy tarbiya va sport soxasini ommaviylashtirish va rivojlantirishga aloxida e’tibor qaratilayotgani barchaga ma’lum. Bugungi zamon yoshlari, bevosita ertamiz egalari hisoblangan yosh avlod vakillari jismonan sog‘lom, kuchli irodaga ega, shu bilan bir qatorda, ta’lim va tarbiyaga ega bo‘lishi, ularni yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lмаган avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsadga yunaltirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida sport yoshlarimiz hayotiga tobora chuqur kirib bormoqda, minglab yigit-qizlar sport bilan shug‘ullanishni kundalik vazifasiga aylantirmokda.Eng muhimi, sog‘lom turmush tarzini ta’minalash va sport bilan hamnafaslik qilish ularning jismoniy holatiga xamda salomatligiga ijobjiy ta’sirini ko‘rsatmokda. Shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamizda aynan bolalar sportini rivojlantirish davlatimiz raxbari va huqumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minalash yuzasidan xam keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga aholining, ayniqsa, yoshlarning ta’lim va madaniy darajasini oshirish, voleybol fanini o‘qitish va uni sifat jihatidan yaxshilash, voleybol orqali O‘zbekiston Respublikasini jahoning taraqqiy etgan davlatlari qatoriga chiqishini ta’minalashni kiritish mumkin.

Qabul qilingan "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" ham ko‘p jihatdan shu kabi vazifalarni yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, o‘qitishning zamonaviy uslublarini qo‘llash va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish asosida muvaffaqiyatli hal etishga yo‘naltirilgan. Istiqlol yillaridan boshlab, Hukumatimiz tomonidan barcha jismoniy tarbiya va sport turlariga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi. Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda ularning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan intilishlarini yanada qo‘llab-quvvatlash borasidagi keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazildi.

XXI asr inson va jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning global miqyosda jadal sur’atlar bilan shakllana borishi, ishlab chiqarish, uy-ro‘zg‘or, yo‘l harakatlari, hatto intellektual jarayonlarni «avtomatlar», kompyuterlar va robotlar «qo‘liga» topshirmoqda. Ushbu vaziyat bir tomonidan, odamzot uchun barcha qulayliklarni muhayyo etsa, ish sifati va samaradorligini oshirsaga, ikkinchi tomonidan, jismoniy mehnat – mushaklar faoliyatini nihoyatda chegaralab qo‘ymoqda. Aynan ikkinchi holatning ustuvorligi asta-sekin gipokineziya (kam harakatlanish) dardiga mubtalo qiladi.

Gipokineziya esa, o‘z navbatida, hayotga xavf soluvchi zamon sivilizatsiyasiga xos xastaliklar (ishemiya, giper-toniya, bronx astmasi, nevroz, osteoxondroz va h.k.)ni keltirib chiqarishi isbot talab qilmaydi. To‘g‘ri, ushbu kasallikklardan xalos bo‘lish uchun «o‘tkir» dori-darmonlar va zamonaviy muolaja usullari mavjud. Lekin bunday vositalar bir darddan «ozod» qilib, ikkinchi bir dardni «chaqirishi» ehtimoldan holi emas. Olimlar tomonidan azaldan ilmiy asosda isbot qilinganki, gipokineziyani oldini oluvchi yoki davolovchi yagona va o‘ta samarali «dori-darmon» me’yorlangan jismoniy tarbiya va sport mashqlaridir.

Demak, iftixor bilan ta’kidlash mumkinki, davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan va davlat siyosati doirasida rivoj topayotgan jismoniy tarbiya va sport sharaflı sohaga aylanib bormoqda. Shunday ekan, ayni vaqtida jismoniy



tarbiya hamda ommaviy sportni aholining, ayniqsa o‘quvchi-yoshlarning kundalik hayotiy ehtiyojiga aylantirish.

Yurtimiz bayrog‘ini Olimp cho‘qqilariga olib chiqishga qodir iste’dodli sport zahiralari hamda raqobatbardosh sportchilar tayyorlovchi professional kadrlar yetishtirish sohaning o‘ta dolzarb vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha tayyorlanadigan o‘qituvchi-murabbiyning modeli «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallangan DTS va namunaviy dastur talablari bilan belgilanadi.

Shu bois, respublikamizda jismoniy madaniyatning maqsad va vazifalari hukumatning hamda Respublika jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasining qaroridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan jismoniy madaniyatni o‘z oldiga qo‘yan maqsadi sog‘lom-ruhan tetik va bunyodkor insonni hayotga tayyorlashdan iborat. Sportga berilayotgan bunday e’tibor natijasida yurtimiz sportchilari xalqaro arenalarda yuqori pog‘onalarga erishmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lex.uz.
2. Yusupbayeva A. S. Sovershenstvovaniye pedagogicheskix mexanizmov formirovaniya zdorovogo obraza jizni v doshkolnom obrazovanii na osnove fizicheskogo vospitaniya. «Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal. №3 2020y
3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zamova «Maktabgacha pedagogika» «Tafakkur» nashriyoti, Toshkent 2019
4. Yusupbayeva A. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarining jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarni tashkil etish usullari. «Xalq ta’limi» ilmiy-metodik jurnal. 2021 yil

5. B. T. Haydarov, G. X. Ibroimova, J. J. Kazimov «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi» Samarqand-2020